2026-yil
9(1)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

UDK: 338.45:66(584.4)(091)"1963/1964"

Turg‘unpo‘latova Manzalatxon Sharobiddin qizi,
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining stajyor o‘qituvchisi

ANDIJON GIDROLIZ ZAVODIDA ISHLAB CHIQARISH VA MEHNAT UNUMDORLIGI: 1963–1964-YILLAR ARXIV HUJJATLARI ASOSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon gidroliz zavodining 1963–1964-yillardagi ishlab chiqarish faoliyati arxiv hujjatlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda korxonaning yalpi mahsulot ishlab chiqarishi, etil spirti va furfural ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi, o‘rtacha ish haqi, mahsulot tannarxi hamda ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar yoritilgan.. Shu bilan birga, tannarx rejasining bajarilmagani, ish vaqtining yo‘qotilishi va mehnat intizomi bilan bog‘liq muammolar ham hujjatlarda aks etgan. Maqolada rasmiy ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bilan korxonaning ichki tashkiliy muammolari birgalikda ko‘rib chiqilib, zavod faoliyatining murakkab va ko‘p qirrali manzarasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Andijon gidroliz zavodi, gidroliz sanoati, ishlab chiqarish, mehnat unumdorligi, furfural, etil spirti, tannarx, ish haqi, mehnat intizomi, arxiv hujjatlari.

ПРОИЗВОДСТВО И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА НА АНДИЖАНСКОМ ГИДРОЛИЗНОМ ЗАВОДЕ: ПО МАТЕРИАЛАМ АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ 1963–1964 ГОДОВ

Аннотация. В статье на основе архивных документов анализируется производственная деятельность Андижанского гидролизного завода в 1963–1964 годах. Рассматриваются показатели валовой продукции, производства этилового спирта и фурфурола, производительности труда, средней заработной платы, себестоимости продукции, а также организационно-технические мероприятия. Исследование позволяет рассмотреть историю предприятия не только через производственные достижения, но и через внутренние организационные процессы.

Ключевые слова: Андижанский гидролизный завод, гидролизная промышленность, производство, производительность труда, фурфурол, этиловый спирт, себестоимость, заработная плата, трудовая дисциплина, архивные документы.

PRODUCTION AND LABOR PRODUCTIVITY AT THE ANDIJAN HYDROLYSIS PLANT: BASED ON ARCHIVAL DOCUMENTS FROM 1963–1964

Annotation. This article analyzes the production activity of the Andijan Hydrolysis Plant in 1963–1964 on the basis of archival documents. It examines gross production, ethyl alcohol and furfural output, labor productivity, average wages, production costs, and organizational and technical measures. At the same time, the documents record failure to meet the cost plan, working-time losses, and problems of labor discipline. The study therefore considers the history of the enterprise through both its production achievements and its internal organizational processes.

Key words: Andijan Hydrolysis Plant, hydrolysis industry, production, labor productivity, furfural, ethyl alcohol, production cost, wages, labor discipline, archival documents.

Kirish. O‘zbekiston hududida kimyo sanoatining rivojlanishi XX asrning ikkinchi yarmida sanoatni ixtisoslashtirish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish va yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Bu jarayonda gidroliz korxonalarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishi alohida o‘rin tutadi. Gidroliz sanoati o‘simlik hamda qishloq xo‘jaligi chiqindilarini qayta ishlash asosida turli organik birikmalar olishga ixtisoslashgan bo‘lib, O‘zbekistonda Andijon gidroliz zavodi 1953-yilda tashkil etilgan. Korxonada asosiy xomashyo sifatida chigit shulxasi va sholi qobig‘idan foydalanilib, texnik etil spirti, furfural, ozuqa achitqilari, ksilit, nitrolignin va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan [1].

Andijon gidroliz zavodi tarixini o‘rganish faqat uning tashkil topgan sanasi yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlarini sanab o‘tish bilan cheklanmasligi kerak. Korxonaning real ishlab chiqarish faoliyatini tushunish uchun ishlab chiqarish rejasining bajarilishi, mehnat unumdorligi, ish haqi, mahsulot tannarxi, texnologik yangiliklar, ish vaqtidan foydalanish hamda mehnat intizomi kabi ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish zarur. Ayniqsa, rasmiy hisobotlarda qayd etilgan ishlab chiqarish natijalari bilan korxona ichidagi tashkiliy muammolarni birgalikda o‘rganish o‘sha davr sanoat korxonalarining faoliyatini yanada to‘liqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Shu jihatdan arxiv hujjatlari bunday tadqiqotlar uchun muhim birlamchi manba vazifasini bajaradi.

Mazkur maqolaning asosiy manbalarini 1964-yilga oid ikki hujjat tashkil etadi. Ulardan birida 1963-yil yakunlari va 1964-yil uchun ishlab chiqarish hamda mehnat unumdorligini oshirish vazifalari bayon qilingan bo‘lsa, ikkinchisida 1964-yil yanvar oyidagi ishlab chiqarish va tannarx ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Ushbu hujjatlarning ilmiy ahamiyati shundaki, ularda korxona faoliyatidagi yutuqlar bilan bir qatorda mavjud kamchiliklar, ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlar va mehnat intizomi bilan bog‘liq muammolar ham qayd etilgan.

Tadqiqotning maqsadi — Andijon gidroliz zavodining 1963–1964-yillardagi ishlab chiqarish va mehnat faoliyatini arxiv hujjatlari asosida yoritish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy-texnik tadbirlarni aniqlash hamda rasmiy ko‘rsatkichlar ortida turgan muammolarni tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metod. Tadqiqotda tarixiylik, xolislik va manbashunoslik tamoyillaridan foydalanildi. Asosiy usul sifatida arxiv hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va qiyoslash usuli qo'llandi. Xususan, 1963-yil yakunlari 1964-yil uchun belgilangan vazifalar bilan, 1964-yil yanvar oyidagi ishlab chiqarish natijalari esa reja ko'rsatkichlari bilan solishtirildi. Bunday qiyosiy yondashuv korxona faoliyatidagi o'sish sur'atlari, rejalashtirilgan vazifalar va amaldagi natijalar o'rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, hujjatlarda qayd etilgan foiz va miqdoriy ko'rsatkichlar tarixiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan izohlandi. Ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligi bilan bir qatorda ish haqi, ish vaqtining yo'qotilishi, tannarx hamda texnik tadbirlar haqidagi ma'lumotlarga ham e'tibor qaratildi. Arxiv matnlarining rasmiy hisobot xususiyati hisobga olinib, undagi ma'lumotlar korxona faoliyatini bevosita aks ettiruvchi manba sifatida qabul qilindi. Biroq hujjatlardagi ma'lumotlar faqat ijobiy natijalar doirasida emas, balki ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelgan muammolar bilan birgalikda tahlil qilindi.

Natijalar. 1964-yilga oid hujjat mazmunidan ko'rinadiki, Andijon gidroliz zavodi jamoasi 1963-yil yakunlarini yuqori baholagan. Hujjatda zavod 1963-yil ishlab chiqarish rejasini muvaffaqiyatli yakunlagani qayd etilib, yalpi mahsulot bo'yicha reja 111,6 foiz, mehnat unumdorligi bo'yicha topshiriq esa 110,6 foiz bajarilgani ko'rsatiladi [2]. Mazkur ko'rsatkichlar korxonaning belgilangan ishlab chiqarish topshiriqlarini nafaqat bajargani, balki ularni sezilarli darajada oshirib bajarganini ko'rsatadi.

Biroq ishlab chiqarish hajmining o'sishini faqat tayyor mahsulot miqdori bilan izohlash yetarli emas. Uning ortida mehnatni tashkil etish, ishchi kuchidan foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham turgan. Hujjatda 1963-yilda mehnatni tashkil etish va ish haqi tizimini yaxshilashga qaratilgan ishlar olib borilgani ta'kidlanadi. Ishchilarni ish joylariga oqilona joylashtirish, tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshirish va ratsionalizatorlik takliflarini ishlab chiqarishga joriy etish mehnat unumdorligini oshirishning asosiy vositalari sifatida ko'rsatilgan.

Korxonada mehnat unumdorligi o'sishining o'rtacha ish haqi o'sishidan 7,3 foiz yuqori bo'lgani ham hujjatda alohida qayd etilgan [3]. Mazkur ko'rsatkich ishlab chiqarish samaradorligini baholashda mehnat unumdorligi va ish haqi o'rtasidagi nisbatga alohida e'tibor berilganini ko'rsatadi. Ya'ni, korxona uchun ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan birga, mavjud ishchi kuchidan samaraliroq foydalanish ham muhim vazifa sifatida qaralgan.

Shu bilan birga, hujjatda mehnat unumdorligini oshirish jarayonida ish vaqtining yo'qotilishi bilan bog'liq muammolar ham ochiq ko'rsatilgan. 1963-yilda kasallik sababli 4906 kishi/kun, ma'muriyat ruxsati bilan ishga kelmaslik natijasida 270 kishi/kun va progullar sababli 33 kishi/kun ish vaqti yo'qotilgani qayd etiladi [4]. Bu raqamlar ishchi kuchidan foydalanishda muayyan yo'qotishlar mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Demak, yuqori ishlab chiqarish natijalari bilan bir qatorda ish

vaqtini tejash va mehnat intizomini mustahkamlash masalasi ham korxona oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lgan.

1963-yil natijalaridan so‘ng zavod oldiga 1964-yilda yanada yuqori ko‘rsatkichlarga erishish vazifasi qo‘yilgan. Arxiv hujjatida yalpi mahsulot hajmini 1963-yilga nisbatan 9,85 foizga, mehnat unumdorligini esa 9,5 foizga oshirish rejalashtirilgani ko‘rsatiladi [5]. E’tiborlisi, ishlab chiqarish hajmini oshirish ishchilar sonini ko‘paytirish hisobiga emas, balki mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish, mehnatni to‘g‘ri tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish orqali amalga oshirilishi lozim bo‘lgan.

Hujjatda mehnat unumdorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy-texnik tadbirlar ko‘lami kengaytirilgani, mazkur tadbirlar ishlab chiqarish va mehnat unumdorligi bo‘yicha belgilangan topshiriqlar bilan bevosita bog‘langani qayd etiladi. Bu yondashuvdan korxona faoliyatida texnik yangiliklar va mehnatni tashkil etish masalalari bir-biridan ajratilmaganini ko‘rish mumkin. Aksincha, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ushbu ikki yo‘nalishning uyg‘unligi orqali ta’minlanishi ko‘zda tutilgan.

1964-yil uchun ko‘zda tutilgan eng muhim tadbirlardan biri furfural olishning yangi texnologiyasini joriy etish bo‘lgan. Hujjatda yangi usulning joriy etilishi spirt ishlab chiqarishni qariyb 30 foizga oshirish imkonini berishi ko‘rsatilgan [6]. Bu ma’lumot zavodda ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish bilan bir qatorda, texnologik jarayonlarni takomillashtirishga ham katta e’tibor berilganini ko‘rsatadi. Yangi texnologiyaning ishlab chiqarish quvvatiga ta’siri korxonada texnik taraqqiyot iqtisodiy samaradorlik bilan bevosita bog‘langanini ko‘rsatadigan muhim dalillardan biridir.

Korxonada qo‘shimcha energetik quvvatlarning ishga tushirilishi, xususan, 4-sonli bug‘ qozoni va turbogeneratorning foydalanishga kiritilishi ham ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan. Energetik quvvatlarning mustahkamlanishi texnologik jarayonlarning uzluksizligini ta’minlash va ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun zarur shartlardan biri bo‘lgan. Shu bilan birga, yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish bo‘yicha tajriba ishlari olib borilgani ham qayd etiladi. Bularning barchasi Andijon gidroliz zavodi faoliyatida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnologik jarayonlarni takomillashtirish va yangi mahsulot turlarini o‘zlashtirishga qaratilgan modernizatsiya elementlari mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, 1963–1964-yillar materiallari Andijon gidroliz zavodi faoliyatida ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining o‘sishi bilan bir qatorda, mehnat unumdorligini oshirish, ish vaqtining yo‘qotilishini kamaytirish, mehnat intizomini mustahkamlash va texnik bazani takomillashtirish masalalari ham muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatadi. Arxiv hujjatlaridagi ma’lumotlar zavod faoliyatini faqat reja bajarilishi nuqtayi nazaridan emas, balki ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi tashkiliy va texnik omillar majmui sifatida baholash imkonini beradi.

Muhokama. 1964-yil 16-fevraldagi hujjat Andijon gidroliz zavodining yanvar oyidagi faoliyatiga bag‘ishlangan. Hujjatning dastlabki qismida zavod yanvar oyida tovar mahsulotlari tannarxi bo‘yicha rejasini bajarmagani qayd etiladi . Biroq keyingi ko‘rsatkichlar korxonaning ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha ancha yuqori natijaga erishganini ko‘rsatadi.

Yanvar oyida yalpi mahsulot ishlab chiqarish 406,3 ming rublni tashkil etib, rejaning 111,7 foiziga yetgan. Etil spirti ishlab chiqarish 21,5 ming dal bo‘lib, reja 102,4 foizga bajarilgan. Furfural ishlab chiqarish 290,8 tonnani tashkil etib, belgilangan topshiriqning 107,6 foiziga yetgan [7]. Mazkur raqamlar zavodning ishlab chiqarish quvvati va jamoaning reja topshiriqlarini bajarish imkoniyati yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish hajmi oshgan bo‘lsa-da, mahsulot tannarxi masalasida murakkab holat yuzaga kelgan. Hujjatda bir dal spirtning tannarxi 3 rubl 27 kopeykani tashkil etgani va 1963-yilga nisbatan 4 foizga kamaygani ko‘rsatiladi. Bir tonna furfural tannarxi esa 276 rubl 47 kopeykani tashkil etib, 1963-yilga nisbatan 7,3 foizga past bo‘lgan [8].

Bu ma’lumotlar muhim bir ziddiyatni ko‘rsatadi: korxona ayrim mahsulotlar tannarxini kamaytirishga erishgan bo‘lsa-da, umumiy tovar mahsulotlari tannarxi bo‘yicha oylik reja bajarilmagan. Shuning uchun zavod faoliyatini faqat ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan baholash to‘liq tasavvur bermaydi. Ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tannarxi va mehnat samaradorligini birgalikda tahlil qilish zarur.

Yanvar oyidagi hujjatda bir ishchiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish ko‘rsatkichi ham berilgan. Bir ishchiga ishlab chiqarish 664 rublni tashkil etib, rejaning 110,9 foiziga yetgan. Hujjatda 1963-yildagi eng yuqori ko‘rsatkich 614 rubl bo‘lgani qayd etiladi [9]. Bu ko‘rsatkich mehnat unumdorligining o‘sish tendensiyasini miqdoriy jihatdan ko‘rsatadi.

O‘rtacha ish haqi esa 101,4 rublni tashkil etgan bo‘lib, rejaning 98,9 foiziga teng bo‘lgan. Demak, yanvar oyida bir ishchiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish rejadan yuqori bajarilgan bir paytda o‘rtacha ish haqi rejadagi ko‘rsatkichga to‘liq yetmagan. Bu holat 1963-yil yakunlari haqidagi hujjatda keltirilgan mehnat unumdorligi va ish haqi nisbatini yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Korxonaning mehnat samaradorligini oshirish siyosatida ratsionalizatorlik takliflari, ishchilarni ish joylariga oqilona joylashtirish va ish vaqtining samarasiz sarflanishini qisqartirish muhim vositalar sifatida qaralgan. Bunday tadbirlarning maqsadi mavjud ishchi kuchidan qo‘shimcha shtat birliklarini joriy qilmasdan ko‘proq mahsulot olishga erishish edi.

Arxiv hujjatlarining qimmatli jihatlaridan biri — ishlab chiqarishdagi muammolarning ham qayd etilganidir. 1963-yil yakunlari bo‘yicha hujjatda ish vaqtining yo‘qotilishi alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Kasallik tufayli 4906 kishi/kun, ma’muriyat ruxsati bilan ishga kelmaslik tufayli 270 kishi/kun, progullar tufayli esa 33 kishi/kun ish vaqti yo‘qotilgan [10].

Bu raqamlar korxonada ishlab chiqarish intizomi masalasi doimiy nazoratda bo‘lganini ko‘rsatadi. Hujjatning o‘zida ish vaqtining samarasiz yo‘qotilishiga qarshi kurash olib borilgani, kun bo‘yi davom etadigan bekor turish holatlari bartaraf etilgani ta’kidlangan. Demak, korxona rahbariyati mehnat unumdorligini oshirishni faqat texnik vositalar bilan emas, ish vaqtini to‘g‘ri tashkil etish bilan ham bog‘lagan.

Bunda kasallik sababli yo‘qotilgan ish kunlari bilan intizomiy sabablarga bog‘liq yo‘qotishlarni bir xil hodisa sifatida talqin qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Arxiv hujjatining o‘zi ham ularni alohida ko‘rsatadi. Shu sababli, mazkur ma’lumotlar zavoddagi mehnat sharoitlari haqida qo‘shimcha tadqiqot olib borish uchun muhim boshlang‘ich material bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Andijon gidroliz zavodining 1963–1964-yillardagi faoliyatida texnologik yangiliklar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish vositasi sifatida ko‘rilgan. Ayniqsa, furfural olish texnologiyasini yangilash bilan bog‘liq reja korxonaning ishlab chiqarish yo‘nalishlari ichida muhim o‘rin tutgan .

Yangi texnologiya joriy etilganda spirt ishlab chiqarishni qariyb 30 foizga oshirish mumkinligi haqidagi reja korxonadagi texnik yangilanishning iqtisodiy maqsadini aniq ko‘rsatadi . Shu bilan birga, 1964-yil yanvaridagi amaliy ko‘rsatkichlarda etil spirti rejasining 102,4 foiz va furfural rejasining 107,6 foiz darajasida bajarilgani qayd etilgan [11]. Demak, rejalashtirilgan texnologik o‘zgarishlarni mavjud ishlab chiqarish natijalari bilan qiyoslash kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Korxona faoliyatiga oid hujjatlarning Andijon viloyat davlat arxivida saqlanishi tarixiy tadqiqot uchun muhim imkoniyat yaratadi. O‘zarxiv ma’lumotlar bazasida “Andijonbiokimyozavodi” hujjatlari bo‘yicha buyruqlar, maosh kitoblari va shaxsiy yig‘ma jildlar mavjudligi, korxonaning avvalgi nomi “Гидролизный завод” bo‘lgani ko‘rsatilgan. Bu ma’lumotlar korxona tarixini ishlab chiqarish statistikasi bilan birga mehnat tarixi, boshqaruv tarixi va kundalik ishlab chiqarish jarayonlari nuqtayi nazaridan o‘rganish uchun keng manba bazasi mavjudligini anglatadi.

Shu jihatdan, arxiv hujjatlari Andijon gidroliz zavodining tarixini “reja bajarildi” yoki “reja bajarilmadi” kabi ikki qutbli baholar bilan cheklamasdan, ishlab chiqarishning ichki mexanizmlarini o‘rganish imkonini beradi. Hujjatlarda bir vaqtning o‘zida yutuq va kamchiliklarning qayd etilishi korxonaning real faoliyatini nisbatan xolisroq tasavvur qilishga yordam beradi.

1963-yil yakunlari haqidagi hujjat esa ishlab chiqarish natijalarini mehnat jarayonlari bilan bog‘laydi. Unda mehnat unumdorligini oshirish uchun ishchilarni ish joylariga oqilona joylashtirish, ratsionalizatorlik takliflaridan foydalanish, ishlab chiqarishdagi bekor turishlarni kamaytirish va ish vaqtining samarasiz yo‘qotilishiga qarshi kurashish kabi choralar ko‘rsatilgan. Demak, ishlab chiqarish samaradorligi masalasi korxonada tashkiliy va mehnat jarayonlari bilan bevosita bog‘langan.

1964-yil 16-fevraldagi hujjatning mazmuni ayniqsa e'tiborlidir. Unda yuqori tashkilot rahbariyatiga murojaat qilinib, yanvar oyidagi natijalar asosida mukofot to'lash masalasini ko'rib chiqish so'raladi. Hujjatning bunday amaliy xarakteri zavoddagi iqtisodiy ko'rsatkichlarning faqat statistik hisobot uchun emas, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ham ishlatilganini ko'rsatadi.

Xulosa. 1963–1964-yillarga oid arxiv hujjatlari Andijon gidroliz zavodining ishlab chiqarish faoliyatini bir tomonlama, faqat reja ko'rsatkichlari asosida baholash mumkin emasligini ko'rsatadi. Bir tomondan, korxona 1963-yilda yalpi mahsulot ishlab chiqarish rejasini 111,6 foiz, mehnat unumdorligi bo'yicha topshiriqni esa 110,6 foiz bajargan. 1964-yil yanvar oyida ham yalpi mahsulot ishlab chiqarish rejasi 111,7 foiz, etil spirti 102,4 foiz, furfural ishlab chiqarish esa 107,6 foiz darajasida bajarilgan [12]. Mazkur ko'rsatkichlar zavodda ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish va ayrim yo'nalishlarda belgilangan rejadan yuqori natijalarga erishish imkoniyati mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish hajmining yuqori ko'rsatkichlari korxona oldidagi barcha muammolar bartaraf etilganini anglatmagan. Xususan, tovar mahsulotlari tannarxi bo'yicha yanvar rejasining bajarilmagani, shuningdek, ish vaqtining kasallik, ishga kelmaslik va progullar sababli yo'qotilgani ishlab chiqarish samaradorligining ichki omillari bilan bog'liq muammolar saqlanib qolganini ko'rsatadi. Demak, zavod faoliyatini o'rganishda "reja bajarildi" degan umumiy xulosadan ko'ra, rejaning qaysi ko'rsatkichlar bo'yicha bajarilgani, bunga qanday omillar ta'sir qilgani va qaysi yo'nalishlarda kamchiliklar mavjud bo'lganini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

1964-yil uchun belgilangan vazifalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda texnologik yangilanish va mehnatni tashkil etish masalalarining o'zaro bog'liqligini yaqqol namoyon etadi. Furfural olishning yangi texnologiyasini joriy etish, energetik quvvatlarni kengaytirish, ratsionalizatorlik takliflarini ishlab chiqarishga tatbiq etish, ishchilarni ish joylariga oqilona joylashtirish va ish vaqtining samarasiz sarflanishini kamaytirish bir-birini to'ldiruvchi chora-tadbirlar tizimini tashkil etgan. Bu esa korxonada ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan bir qatorda, mavjud mehnat va texnik resurslardan samaraliroq foydalanishga intilish bo'lganini ko'rsatadi.

Shuningdek, mehnat unumdorligining o'rtacha ish haqi o'sishidan yuqori bo'lgani korxona iqtisodiy faoliyatida mehnat samaradorligi va ish haqi o'rtasidagi nisbatga e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ish vaqtining yo'qotilishi bilan bog'liq ma'lumotlar mehnat unumdorligini oshirish faqat texnik vositalarni takomillashtirish emas, balki mehnat intizomi va ish vaqtini samarali tashkil etish bilan ham bevosita bog'liq bo'lganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Andijon gidroliz zavodining 1963–1964-yillardagi faoliyati O'zbekistonda sovet davri kimyo sanoatining rivojlanish jarayonlarini o'rganish uchun muhim tarixiy manba sifatida baholanishi mumkin. Mazkur davr hujjatlari korxonaning ishlab chiqarish natijalari bilan bir qatorda, ishchilar mehnati, ish haqi,

mehnat unumdorligi, mehnat intizomi, mahsulot tannarxi, texnologik yangiliklar va ichki tashkiliy muammolarni birgalikda ko‘rib chiqish imkonini beradi. Shu jihatdan arxiv materiallari zavodning nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarini, balki o‘sha davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari va mehnat jarayonlarining ayrim jihatlarini ham yoritishga xizmat qiladi.

Kelgusida Andijon gidroliz zavodiga oid arxiv fondining buyruqlar, maosh va tabel kitoblari, shaxsiy yig‘ma jildlar, ishlab chiqarish hisobotlari, texnik hujjatlar hamda kasaba uyushmasi materiallarini tizimli ravishda o‘rganish maqsadga muvofiq. Bunday tadqiqotlar zavoddagi mehnat jamoasining tarkibi, ishchilarning ijtimoiy-professional xususiyatlari, mehnat sharoitlari, ish haqi dinamikasi va ishlab chiqarish jarayonidagi o‘zgarishlarni yanada chuqurroq ochib berish imkonini beradi. Bu esa Andijon gidroliz zavodi tarixini mahalliy sanoat tarixi doirasida yanada kengroq va manbaviy asosda tadqiq etishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://qomus.info/oz/encyclopedia/a/andijon-biokimyo-zavodi/
2. Andijon viloyat davlat arxivi 377- fond, 1-ro’yxat, 45-ish, 72-bet
3. Andijon viloyat davlat arxivi 377- fond, 1-ro’yxat, 45-ish, 73-bet
4. Andijon viloyat davlat arxivi 377- fond, 1-ro’yxat, 72-ish, 99-bet
5. Andijon viloyat davlat arxivi 377- fond, 1-ro’yxat, 72-ish, 98-bet
6. Andijon viloyat davlat arxivi 377- fond, 1-ro’yxat, 45-ish, 7-bet
7. Andijon viloyat davlat arxivi 377- fond, 1-ro’yxat, 45-ish, 67-bet
8. Andijon viloyat davlat arxivi 377- fond, 1-ro’yxat, 72-ish, 18-bet
9. Andijon viloyat davlat arxivi 377- fond, 1-ro’yxat, 45-ish, 14-bet
10. Andijon viloyat davlat arxivi 377- fond, 1-ro’yxat, 71-ish, 29-bet
11. Andijon viloyat davlat arxivi 377- fond, 1-ro’yxat, 71-ish, 39-bet
12. Andijon viloyat davlat arxivi 377- fond, 1-ro’yxat, 72-ish, 49-bet

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694